Annotatsiya. Maqolada ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning turli mexanizmlari, ularning ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish choralari va vositalari aniqlanib, iqtisodiyotning real talablaridan kelib chiqqan holda ayollar samarali ish bilan bandligini ta'minlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar taklif qilingan. Maqolada ayollarning ish bilan bandlik muammolariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan hamda bir qator ijtimoiy mexanizmlar taklif etilgan. Ayollarning mehnat bozorida ishtirokini kengaytirish, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar o'rganiladi. Amaldagi davlat dasturlari, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar va bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan choralarning ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: ayollar ish bilan bandligi, mehnat bozori, iqtisodiy faollik, xotin-qizlar siyosati, ishsizlik, ishchi kuchiga talab va taklif, ijtimoiy mexanizmlar, masofaviy mehnat, tadbirkorlik.

Abstract. The article examines state regulation mechanisms aimed at ensuring women's employment, identifies policy measures and instruments implemented to support women's participation in the labour market, and proposes recommendations for improving effective female employment based on real economic needs. It analyses the key factors influencing women's employment challenges and introduces several social mechanisms designed to address them. The study explores the economic and social conditions necessary to expand women's labour-market participation and evaluates the impact of current state programmes, gender-equality reforms, and employment-support measures.

Key words: women's employment, labour market, economic activity, gender policy, unemployment, labour supply and demand, social mechanisms, remote work, entrepreneurship.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы государственного регулирования, направленные на обеспечение занятости женщин, определяются меры и инструменты государственной поддержки, а также представлены рекомендации по совершенствованию эффективной занятости женщин с учётом реальных потребностей экономики. Анализируются факторы, влияющие на проблемы женской занятости, и предлагается ряд социальных механизмов. Исследуются экономические и социальные условия расширения участия женщин на рынке труда, а также оценивается влияние действующих государственных программ, реформ по обеспечению гендерного равенства и мер по поддержке занятости.

Ключевые слова: занятость женщин, рынок труда, экономическая активность, гендерная политика, безработица, спрос и предложение рабочей силы, социальные механизмы, дистанционный труд, предпринимательство.

KIRISH

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining qariyb yarmi ayollar ekanligi, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va tikuvchilik kabi sohalarida faol ishlayotgani mehnat bozorining sezilarli salohiyatini ko'rsatadi. Ayrim hududlarda ayollar bandligi erkaklarga nisbatan pastroq bo'lishi esa kelgusida maqsadli qo'llab-quvvatlash choralari yanada kuchaytirish zarurligini bildiradi. Kasb va malaka bo'yicha nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan o'quv dasturlarini rivojlantirish, bolalarni parvarishlash bilan bog'liq ijtimoiy yuklamani kamaytiruvchi xizmatlarni kengaytirish, infratuzilma imkoniyatlarini yaxshilash va ijtimoiy qarashlarda ijobiy o'zgarishlarni shakllantirish ushbu masalalarda yangi natijalarga erishish imkonini beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan ayollar iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan "Ayollar daftari", Oilaviy tadbirkorlik dasturi, kasb-hunar markazlari faoliyatini takomillashtirish, masofaviy mehnat shakllarini kengaytirish va ayollar bandligini qo'llab-quvvatlaydigan korxonalarni rag'batlantirish siyosati yaqin yillarda sezilarli samaralar berishi kutiladi. Shuningdek, BMT, Jahon banki va UNDP bilan hamkorlikdagi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish loyihalari mahalliy hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi prognoz qilinadi.



Kelgusida quyidagi yo'nalishlar ayollar bandligini oshirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi: raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish shakllari IT, dizayn, tarjima va marketing kabi yo'nalishlarda ayollar uchun yangi platformalar ochmoqda; oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha kichik biznes uchun soliq imtiyozlari hamda mikrokreditlar berilishi; agroklastlar va servis markazlari orqali qishloq joylarda ayollarni ishga jalb etish; ta'lim tizimida STEAM yo'nalishlariga ayollarni kengroq jalb etish esa kelgusida yuqori malakali ayollar sonining ortishiga xizmat qiladi.

Ayollarning ish bilan bandligini oshirish nafaqat ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish demakdir. O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan islohotlar ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligida bu boradagi ishlar yanada tizimli va samarali tashkil etilishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollarning mehnat bozorida ishtiroki masalasi global miqyosda iqtisodiy o'sish, inson kapitali rivoji va ijtimoiy farovonlik bilan bevosita bog'liq omil sifatida keng tadqiq etilgan. Gary Beckerning gender nuqtayi nazarini tahlil qilgan tadqiqotlari mehnat taqsimotida an'anaviy stereotiplar mavjudligi ayollar bandligini cheklovchi asosiy funksional omillardan biri ekanini ko'rsatadi. U oilaviy majburiyatlar ayollar iqtisodiy faolligiga kuchli ta'sir qilishini, shu sababli davlat siyosatlarini orqali uy-mehnat muvozanatini qo'llab-quvvatlovchi institutlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Amartya Sen o'zining imkoniyatlar yondashuvida ayollar bandligini faqat iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy erkinlik va tanlov imkoniyatini kengaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, ayollarning ish bilan bandligi ularning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi, oilaviy qaror qabul qilishdagi mavqeiini yuksaltiradi va jamiyatda tenglik darajasini oshiradi.

Claudia Goldin tomonidan olib borilgan tarixiy-mehnat tahlillari ayollar bandligi dinamikasi ta'lim darajasi, demografik o'zgarishlar, texnologik rivojlanish va bandlikning moslashuvchan shakllari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Goldinning uzoq muddatli kuzatuvlari ayollar oliy ta'limga kirish imkoniyati kengaygan davlatlarda mehnat bozoriga kirish sur'atlari yuqori bo'lishini tasdiqlaydi.

OECD tadqiqotchilari tomonidan turli mamlakatlar bo'yicha olib borilgan empirik tahlillar bolalar parvarishi xizmatlarining rivojlanishi, yarim stavkali ish o'rinlari, moslashuvchan ish vaqti va masofaviy mehnat shakllari ayollar bandligining eng asosiy determinanti ekanini ko'rsatadi. Masalan, John Blundell va Richard Dickensning tadqiqotlarida iqtisodiy rag'batlantiruvchi siyosatlar, jumladan soliq imtiyozlari va subsidiyalar, ayollarning rasmiy sektordagi ishtirokini oshiruvchi omil sifatida baholangan.

Kate Antonova va Anastasia Denisovanning postsovet makoniga oid tadqiqotlari gender tafovutlari mehnat bozorida asosan quyi malakali ishlar kontsentratsiyasi, ish haqi farqlari va institutsional cheklovlar shaklida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ularning fikricha, iqtisodiy islohotlar ayollarni tadbirkorlik, kichik biznes va ijtimoiy xizmatlar sektoriga jalb etishni rag'batlantiradi.

Markus Goldstein va Christopher Udry Afrika davlatlari misolida olib borgan tadqiqotlarida ayollar bandligining kengayishi uchun moliyaviy xizmatlar, kredit olish imkoniyati, yer resurslariga egalik huquqi va bozor infratuzilmasi markaziy o'rin tutishini isbotlagan. Ular ayollar tadbirkorligiga qaratilgan dasturlar yuqori darajada ijobiy iqtisodiy qaytish berishini ta'kidlaydi.

Ushbu ilmiy manbalar tahlili ayollar bandligini oshirish kompleks, ko'p omilli jarayon ekanini ko'rsatadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat siyosati, ijtimoiy infratuzilma, oilani qo'llab-quvvatlash tizimi va iqtisodiy rag'batlar bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ayollarning ish bilan bandligini oshirish omillarini aniqlash maqsadida rasmiy statistika bazalari, XMT va Jahon banki ma'lumotlari, shuningdek milliy so'rovlar natijalaridan foydalanishga asoslanadi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv tahlil, regressiya yondashuvi va hududlar kesimidagi solishtirma tahlil orqali qayta ishlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichida mehnatga layoqatli ayollarning ishlab chiqarishning innovatsion usullari rivojlanishi bilan ijodiy yaratuvchanligi uzluksiz oshib borayotganligi namoyon bo'lmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda ayollarning 45 foizga yaqini "iqtisodiy faol"lar qatoriga kiradi. Markaziy va Sharqiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo hamda G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ishchi kuchining sal kam yarmi ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoda 30 foizdan ziyod oila o'z daromadlarining asosiy manbai bo'lgan ayollarning ish haqi hisobiga yashaydi,



Yevropada esa 60 foiz oilada ayollarning daromadlari budgetning yarmini yoki undan ko'prog'ini tashkil etadi. Dunyoning 142 davlatida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ayollarning 29 foizi ish haqi to'lanadigan ishda, 41 foizi oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish bilan birga ish bilan band, faqat 27 foiz ayollar esa ish bilan band bo'lishni istamaydilar.

Mamlakatimizda ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish hamda iqtisodiy faolliklarini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasida keltirilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish hamda oila asoslarini yanada mustahkamlash vazifasi belgilangan.

Mazkur qonunchilik hujjatining talablaridan kelib chiqib, ularning bugungi davrdagi ijrosini ta'minlash, aholini ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish masalasi davlat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Qishloq joylarida ayollarni ish bilan bandligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy, tashkiliy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilish esa ularning ish bilan bandligini oshirish uchun samarali vazifa ekanini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasida ham qishloq joylarida istiqomat qiluvchi ayollar duch keladigan alohida muammolarga katta e'tibor qaratilgan. Konvensiyaning 14-moddasiga binoan, ishtirokchi davlatlar "qishloq joylarida ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ko'rishlari, ularning rasmiy va norasmiy ta'lim olish hamda tayyorgarlikning barcha turlariga ega bo'lish huquqini ta'minlashlari, yollanib ishlash yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali teng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishlari, shuningdek jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etishlarini ta'minlashlari shart".

Iqtisodiy, ijtimoiy, migratsion va demografik munosabatlar ayollarning ish bilan bandligini oshirishda gender tengligi tamoyillari asosida tahlil qilinishi zarur bo'lib, bu yondashuv ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishi hamda oilaviy mas'uliyatlarni uyg'un tarzda olib borishiga keng imkoniyat yaratadi. Kelgusida ushbu jarayonni chuqurlashtirish, ayollarning mehnat faoliyati va farzandlar tarbiyasini bir-birini to'ldiradigan tizim sifatida tashkil etish istiqbolda mehnat samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Ayollar bandligining mazmuni iqtisodiyot tarmoqlarida hamda boshqa sohalarda ularning ruhiy-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, mehnat va oilaviy vazifalarni uyg'unlashtiruvchi mehnat munosabatlari tizimini shakllantirishni anglatadi. Qishloq hududlarida ish o'rinlari sonini ko'paytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ayollarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar istiqbolda qishloq ayollarining iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirishi kutiladi.

Mamlakatimizda ayollar bandligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar shakllanganligi, ayniqsa qishloq hududlarida ushbu imkoniyatlarni chuqur o'rganish va rivojlantirish uchun yangi metodik yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Qishloq joylarda ayollarning samarali mehnatga jalb qilinishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish, iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish va bandlikni tartibga solish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni joriy etish istiqbolda ularning iqtisodiy faolligini yanada oshiradi.

Ayollar bandligini rivojlantirishda moddiy yordam bilan bir qatorda, ularni mehnat bozoriga faol kirishiga imkon beradigan qulay mehnat sharoitlarini yaratish, kasb-hunar tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash va mehnatga jalb etishni rag'batlantiruvchi tizimni kengaytirish ijobiy natijalar berishi prognoz qilinadi. Ushbu yo'nalishlar bosqichma-bosqich rivojlantirilsa, qishloq ayollarining iqtisodiy faolligi sezilarli darajada ortishi kutiladi.

Qishloq ayollarining, ayniqsa mehnat bozoriga birinchi bor kirib kelayotgan qizlarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilishini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandlikning aniq tartiblarini belgilash ularning ish beruvchilar mas'uliyatini oshirish, ish vaqtida unumli foydalanish, mehnatni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishga imkon beradi.

Bunday vositalar ayollarning makroiqtisodiy o'zgarishlardagi asosiy belgilaridan biri — yangi ish joylarini tashkil etish orqali ishsizlik darajasini kamaytirish imkonini beradi. Yangi ish joylarini yaratish, avvalo, ish kuchi taklifidan kelib chiqib shakllanadi. Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratishning o'ziga xos tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, investitsiya dasturlari, mahalliyashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash tarmoq dasturlari, shuningdek kasanachilikni rivojlantirish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Harakatlar strategiyasida hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsion loyihani ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etilishi belgilangan. Ushbu chora-tadbirlarning ijrosi sifatida iqtisodiyot tarmoqlarining mavjud salohiyatidan samarali foydalanish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi obyektlarni ishga tushirish, kichik biznes, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish hisobiga 2017-yilning yanvar–avgust oylarida 521,5 ming kishi, shu jumladan 268,2 ming nafar ayolning ish bilan bandligi ta'minlangan.



Qishloq joylarida ayollar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratilsa, mazkur vazifani bajarishning o'ziga xos jihatlari ish o'rinlarini tashkil etishning moliyaviy qiymati, afzalliklari va samaradorligi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi 78,3 foizni tashkil etgan. Ayollar va erkaklarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandligi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega: erkaklar bu faoliyatni sanoat, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun maqbul deb hisoblasalar, ayollar xizmat ko'rsatish, savdo, yengil sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishlarini afzal ko'radilar. Qishloq joylarda esa ayollar ushbu sohalarida asosan kasanachilikni ma'qul deb biladilar va bu borada ularni yaqinlari, turmush o'rtog'i, oila a'zolari hamda ayollar uyushmalari qo'llab-quvvatlaydi.

Bizningcha, qishloq joylarda ayollar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishda hududiy xususiyatlar va yo'nalishlarni inobatga olish lozim. Ayollarga mos ish o'rinlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida yaratish yuqori unumdorlikka olib keladi. Shu o'rinda qishloq joylarida ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlariga bog'liq holda tasniflash maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, ayollarning, ayniqsa mehnat bozoriga birinchi bor kirib kelayotgan qizlarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilishida real va moliyaviy sektorlar bo'yicha bandlikning aniq tartiblarini belgilash, ularning o'z ish joylaridagi barqarorligini ta'minlash, ish beruvchilar va nodavlat notijorat tashkilotlarining mas'uliyatini oshirish hamda mehnatni tashkil qilish va boshqarishning ayollar manfaatiga yo'naltirilgan mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu esa ayollarni manzilli qo'llab-quvvatlash, ular orasida ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmaganlar bilan yakka tartibda ishlash, ish bilan bandlikka ko'maklashish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Biz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida qishloq joylarida ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlariga bog'liq holda tasniflash birlamchi va ikkilamchi omillar guruhlariga ajratilgan holda o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. Ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solish

Birlamchi omillar	Ikkilamchi omillar
Makroiqtisodiy barqarorlikning rivojlanishi	Ishsizlik nafaqasiz miqdorini yashash uchun zarur eng kam xarajatlar qiymatiga tenglashtirish
Mexnatga xaq to'lash darajasi va daromadlarning	Ayollar talabi va jinsiga mos serdaromad ish joylarini yaratish
Ish bilan bandlikni iqtisodiy tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarni tatbiq etilishi	Tadbirkorlik faoliyatlarida turli iqtisodiy imtiyozlar berish
Shaxsiy yordamchi xo'jalikni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash	Ish beruvchining talablaridan kelib chiqqan holda ishsiz ayollarni kasbiy tayyorlash
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni optimallashtirish	Migratsion jarayonlarda noqonuniy faoliyatni cheklash
Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash	Nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligini oshirish

Bundan tashqari, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish holatidan kelib chiqib quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: yangi tadbirkorlik tuzilmalari, innovatsion loyihalar va jamoa tashkilotlari bo'yicha ma'lumotlar bankini muntazam yangilab borish, qishloq joylarida ayollarning ijtimoiy faolligini hamda ularning kasbiy ta'limi sifatini yanada yaxshilash, oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikni, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllarini rivojlantirishga keng ko'maklashish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish asosida oilaviy korxonalarni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Ma'lumki, kichik korxonalarning yangi ish joylarini yaratish va iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etishdagi roli muhim. Kichik biznesga soliq yukining qisqartirilishi ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu holat kichik biznes rivojlanishini davlat tomonidan moliyalashtirish zaruriyatining ham qisqarishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim. Bizning fikrimizcha, qishloq joylarida ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solish imkoniyatlaridan biri sifatida oilaviy biznesni innovatsion tadbirkorlik asosida tashkil etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hududiy tuzilmasini takomillashtirish hamda har bir tarmoqda oilaviy biznes shaklini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion loyihalarini amaliyotga keng targ'ib qilish maqsadga muvofiq.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Turli xil iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar hamda kafolatlangan ish joylarini taqdim etish orqali mehnatga layoqatli yosh va ko'p bolali ayollar faoliyatini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish lozim.

Respublikada oilaviy tadbirkorlik ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda muhim imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Qishloq joylarda ayollar tadbirkorligini, ayniqsa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi samarali mexanizmlarni tatbiq etish zarur:

- ayollar tadbirkorligini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- tijorat banklari, sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hamda xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish;
- qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohalarida ayollar uchun tadbirkorlik ish joylarini yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ularning oilaviy tadbirkorligi uchun iqtisodiy imtiyozlar taqdim etish;
- ayol tadbirkorlar uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy axborot va maslahatlarni taqdim etuvchi innovatsion markazlar va biznes-inkubatorlar faoliyatini yanada takomillashtirish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Убайдуллаева Р.А.Рахимова Н.Х. Условия и факторы повышения социального статуса женщин Узбекистана в годы независимости. СОЦИС.№ 4 Москва. 2015. -С.110
2. Towards a better future for women and work: Voices of women and men. MOT Preventing Discrimination, Exploitation and Abuse of Women Migrant Workers: An Information Guide, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.1017/S1365100500656>
3. The average monthly wages of men and women in the economic activities under survey // Access mode: URL: <http://www.gsk.ru> (Access date 18.09.2012).
4. Becker G. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
5. Sen A. Development as Freedom. – Oxford: Oxford University Press, 1999.
6. Goldin C. Understanding the Gender Gap. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
7. OECD. Employment Outlook. – Paris: OECD Publishing, 2020.
8. Blundell J., Dickens R. Labour Market Policy and Gender. – London: LSE Press, 2018.
9. Antonova K., Denisova A. Labour Market Outcomes in Post-Soviet Countries. – Moscow: HSE Publishing, 2017.
10. <https://www.parliament.gov.uz>. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Axborot xizmati.
11. <https://www.Stat.uz>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>